Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BARQARORLIK SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI

Alimova Oydin Baxtiyarovna
Email: baxtiyarovnaoydin16@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23274213

Annotatsiya: Ushbu tezisda inson kapitali darajasining viloyat miqyosidagi holati va tendensiyalari yoritib berilgan. Shuningdek, Toshkent viloyati misolida inson kapitali darajasi o'rganilib tegishli xulosalar keltirilgan.
Kalit so'zlar: inson kapitali, barqarorlik, innovatsion texnologiya, investitsion loyihalar.

Abstract: This thesis highlights the status and trends of the level of human capital at the regional level. Also, the level of human capital is studied on the example of Tashkent region and relevant conclusions are presented.
Keywords: human capital, sustainability, innovative technology, investment projects.

Kirish: Inson kapitali bugungi kunda jahonda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim strategik resurslaridan biri hisoblanib, mamlakatlar tomonidan uni rivojlantirish hamda hududlar kesimida takomillashtirish masalasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda ham hudud iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda inson kapitali hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududlarning raqobatdoshligini ta'minlash faqatgina moddiy resurslar yoki qulay geografik joylashuv bilan cheklanib qolmaydi. Zero, har qanday innovatsion texnologiya va investitsion loyihalar uni boshqaradigan va takomillashtiradigan yuqori malakali va qobiliyatga ega mutaxassislar orqaligina o'zining iqtisodiy samaradorligini namoyon etadi.

Asosiy qism: Hududlarni kompleks rivojlantirishda inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sishning eng samarali vositasidir. "Bu jarayonda inson kapitali salohiyatini oshirish, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozori islohotlarini hududiy rivojlanish bilan uyg'un holda amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning kafolati bo'lib xizmat qiladi"[1].

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish, ularni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish vazifalari oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida bitiruvchilarni oliy ta'limga qabul qamrovini 50 foizga yetkazish[2], Jahon banki tomonidan O'zbekistonda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan sanoat korxonalarining qariyb 50 foizi oliy ma'lumotli malakali mutaxassislarning yetishmasligini boshdan kechirmoqda . Shu boisdan, mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, uni sifat va miqdor jihatdan barqarorlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur strategik maqsadlarning amalda bajarilishini hududlarda, xususan

[1] Х.Н. Набиева. Особенности использования человеческого капитала в региональной экономике (на примере согдийской области республики таджикистан) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук по специальности

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2019 yil 8 oktyabr, PF-5847-son. ttps://lex.uz/docs/4545884.

Toshkent viloyatida inson kapitali holatini chuqur tahlil qilishni va mavjud muommolarni aniqlash zarur hisoblanadi. O‘zbekison mintaqalarida inson kapitali tarkibi va uning rivojlanish darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Ayrim viloyatlarda sog‘liqni saqlash sifati, ta‘lim muassasalari soni ko‘p bo‘lsada, boshqa viloyatlarda bu sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

1-jadval[3].

2024 – yilda hududlar kesimida inson kapitalining rivojlanish darajasi.

Hududlar	Inson kapitali indeksi	Rivojlanish darajasi
Toshkent shahri va Toshkent viloyati	0.78 – 0.74	Yuqori
Navoiy, Buxoro va Farg‘ona viloyati	0.71 – 0.69 – 0.6	O‘rtachadan yuqori
Samarqand va Sirdaryo viloyati	0.67 – 0.66	O‘rta
Andijon, Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati	0.65 – 0.64 – 0.63	O‘rtachadan past
Surxandaryo va Namangan viloyati	0.61 – 0.60	Past

Ushbu keltirilgan jadvalda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha inson kapitali darajasi va rivojlanish holati asosan uchta asosiy komponent ya‘ni aholi jon boshiga daromad, ta‘lim darajasi va sog‘liqni saqlash holatidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, inson kapitalining hudud doirasida rivojlanish darajasining eng yuqori ulushi Toshkent shahri (0,78) va Toshkent viloyatiga (0,74) to‘g‘ri keladi. Sababi shundaki, poytaxtimiz va Toshkent viloyatida ta‘lim muassasalari soni, ta‘lim bilan qamrab olish darajasi, sog‘liqni saqlash tashkilotlari va sifatli tibbiyot xizmatlar hamda mehnat bozorida yuqori daromadli ish o‘rinlari hududa inson kapitali darajasi oshishiga salmoqli hissasini qo‘shadi.

[3] Muallif tomonidan tuzildi.

Kuchli jihatlar (S)	Zaif jihatlar (W)
Viloyat hududida ko‘plab nufuzli oliygohlar va ularning filiallari mavjudligi.	Aholining raqamli ko‘nikmalari va internet infratuzilmasining viloyat hududlari bo‘yicha tafovutligi
Mehnatga layoqatli yosh aholining yuqori ulushi	Chekka hududlarda sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifatsizligi
Sanoat salohiyati yuqoriligi - Olmaliq, Angren va Chirchiq kabi yirik sanoat xablarining mavjudligi	Ayrim tog‘li hududlarda maktabgacha va professional ta‘lim bilan qamrab olish darajasi pastligi
Poytaxt bilan uzviy bog‘liqlik va kuchli transport-logistika infratuzilmasi	Ta‘lim tizimi bitiruvchilari ko‘nikmalari bilan sanoat korxonalari (masalan, OKMK, AGMK) talablari o‘rtasidagi tafovut
Imkoniyatlar (O)	**Tahdidlar (T)**
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida mintaqaviy inson kapitalini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda	Malakali mutaxassislarning Toshkent shahridagi yuqori maoshli ish o‘rinlariga o‘tib ketishi
Xorijiy investitsiyalar hisobiga xalqaro standartdagi boshqaruv ko‘nikmalarini o‘zlashtirish imkoni	Sanoat sababli ekologik muammolarning aholi salomatligi va uzoq umr ko‘rishiga salbiy ta‘siri.
Sanoat zonalarida IT-yechimlarni joriy etish orqali yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini yaratish.	Tashqi migratsiya oqibatida mahalliy sanoatda “o‘rta bo‘g‘in” mutaxassislari kamayishi mumkin
Investitsion jozibadorlikka ega hududligi	Aholi sonining jadal sur‘atda o‘sishi sababli demografik yuklama ortishi mumkin

1-rasm. Toshkent viloyatida inson kapitalini rivojlantirish strategiyasining SWOT tahlili[4].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, hudud iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda inson kapitali hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Viloyat miqyosida inson kapitali barqaror rivojlanishning asosiy strategik resursi sifatida qaraladi, sababi shundaki, inson kapitali mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik taraflama barqaror rivojlanishida, ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirishda hamda innovatsion salohiyatni jadallashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Х.Н. Набиева. Особенности использования человеческого капитала в региональной экономике (на примере согдийской области республики таджикистан) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук по специальности
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 2019 yil 8 oktyabr, PF-5847-son. ttps://lex.uz/docs/4545884.

[4] Muallif tomonidan tuzildi.